

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojida falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 141.131

ABU HOMID AL-G'AZZOLIY VA IBN AL-ARABIY ILMIY MEROSINING KEYINGI DAVRLARDA TADQIQI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI**ИЗУЧЕНИЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ИМАМА АЛЬ-ГАЗЗАЛИ И ИБН АЛ-АРАБИ В ПОСЛЕДУЮЩИЕ ПЕРИОДЫ И ЕГО АКТУАЛЬНОСТЬ В НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ****STUDY OF THE SCIENTIFIC LEGACY OF IMAM AL-GHAZALI AND IBN AL-ARABI IN LATER PERIODS AND ITS RELEVANCE TODAY**

Pulatov Sayyodbek Hasanovich 
Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan BMTning 72-sesiya ishtiroklariga "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish to'g'risidagi taklifi [1] jahon miqyosida "jaholatga barham berish, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinliklarni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilganligidan kelib chiqib, tasavvuf ta'limotida ham eng muhim hisoblangan bunday tamoiini hayotga tadbqiq qilishga qaratilganligini hisobga olib, tadqiqot natijasida Abu Homid al-G'azzoliyning mo'tadil tasavvufi bilan ifadalangan so'fiylik hamda Muhyiddin ibn al-Arabiyning "vahdatul-vujud" haqidagi falsafiy tasavvufiy qarashlari yoritildi. Tasavvuf nazariyoti yo'nalishlarining har ikkisi ham tasavvuf amaliyotini aqlga muvofiqlashtirishga xizmat qilgan. Imom al-G'azzoliy hamda Ibn al-Arabi kabi taniqli, sufiy-nazariyotchi olimlar tasavvufiy dunyoqarashni mantiqiy qurollantirib, unga tasavvuf tajribaga oid o'ziga xos bilim – "haqiqat bilan aloqa qilish" xususiyatiga ega bo'lgan "nazariy fan" maqomini berdilar. Maqolada bu ikki buyuk allomaning tinchliksevarlik, bag'rikenglik g'oyalari, ularning tasavvufiy falsafiy me'rosining bugungi kundagi ahamiyati ochib berildi.

Аннотация

В статье предложение Президента Узбекистана Шавката Миромоновича Мирзиёева участникам 72-й сессии ООН принять в мировом масштабе специальную резолюцию под названием «Просвещение и религиозная толерантность» заключается в том, чтобы «покончить с невежеством, установить толерантность и взаимоуважение, обеспечить свободу вероисповедания» и исходя из того, что он направлен на защиту их прав и помощь в преодолении их дискриминации, принимая во внимание тот факт, что такой принцип, который считается самым важным в суфизме направлен на повседневную жизнь людей.

В результате исследования выделен суфизм, выраженный умеренным суфизмом Абу Хамида аль-Газали и философско-мистическими взглядами Мухиддина ибн аль-Араби на бытие как «вахдатуль-вуджуд». Оба направления теории суфизма служили гармонизации практики суфизма с разумом. Известные суфийские ученые-теоретики, такие как Имам аль-Газали и Ибн аль-Араби, рационализировали суфийское мировоззрение и придали ему статус «теоретической науки», имеющей свойство «общения с божеством» как уникального знания суфийского опыта. В статье раскрыты идеи мира и толерантности этих двух великих учёных, значение их мистико-философского наследия сегодня.

Abstract

In the article, the proposal of the President of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev to the participants of the 72nd session of the UN to adopt a special resolution on a global scale called "Enlightenment and religious tolerance" is to "end ignorance, establish tolerance and mutual respect, ensure freedom of religion" and based on the fact that it is aimed at protecting their rights and help prevent their discrimination, taking into account the fact that such a principle, which is considered the most important in Sufism, is aimed at the daily life of people. As a result of the study, Sufism was identified, expressed by the moderate Sufism of Abu Hamid al-Ghazali and the philosophical and mystical views of Muhyiddin ibn al-Arabi on being as "wahdat ul-wujud". Both directions of Sufi theory served to harmonize Sufi practice with reason. Famous Sufi theorists such as Imam al-Ghazali and Ibn al-Arabi rationalized the Sufi worldview and gave it the status of a "theoretical science" that has the property of "communication with the deity" as a unique knowledge of Sufi experience. The article reveals the ideas of peace and tolerance of these two great scientists, the significance of their mystical and philosophical heritage today.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, mu'tadil, falsafiy, rasional, irrasional, aql, nazariyotchi, bilish, vahdat ul-vujud, diniy bag'rikenglik.

Ключевые слова: Суфизм, умеренный, философский, рациональный, иррациональный, разум, теоретик, знание, единство, религиозная толерантность.

Key words: Sufism, moderate, philosophical, rational, irrational, reason, theorist, knowledge, unity, religious tolerance.

KIRISH

XXI asrga kelib, tasavvufni, jumladan, Imom al-G'azzoliy va Ibn al-Arabiy kabi allomalarning tasavvufiy falsafiy ta'limotlarini musulmon tafakkuri va hayot tarzi sifatida uning falsafasi, badiiy adabiyoti, hayotbaxsh g'oyalarini birgina musulmonlar emas, balki turli din va millatga mansub insonlar ham zo'r qiziqish bilan o'rganishmoqda. Chunki tobora ma'naviy qashshoqlik, axloqiy tubanlik hamda ruhiy tushkunliklar iskanjasiga tushib borayotgan insoniyat tasavvufning ruhiy tarbiya usullaridan foydalanishga muxtojlik sezmoqda. Jahonda yuz berayotgan diniy ekstremizm, fundamentalizm va terrorizm kabi voqealarning paydo bo'lish sabablari ko'proq diniy savodsizlikdan chiqib kelayotganligini nazarda tutish joiz.

Bugungi kunda ham tasavvufiy falsafiy ta'limot er yuzida takomillashib borish va modernizatsiyalashish imkoniyatlari kengligini isbotlab bermoqda. Shuning uchun Imom al-G'azzoliy va Ibn al-Arabiy tasavvufiy falsafiy ta'limotlarini o'rganish insonlar dunyoqarashini kengaytirib, falsafadagi eng muhim masala – bilish nazariyasini rivojlantirishga yordam beradi. Imom al-G'azzoliy tasavvufiy dunyoqarashni rasmiy (ortodoks) islom bilan muvofiqlashtirdi va mo'tadil tasavvuf nazariyasini yaratdi. Ibn al-Arabiy esa tasavvufda "vahdatul-vujud" ("borliqning birligi") falsafasini takomillashtirdi va diniy bag'rikenglik g'oyasini olg'a surdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yevropa madaniy tafakkurida, Imom al-G'azzoliyning ilmiy merosi falsafa va ratsionalizmning dushmani sifatida o'rganilib, uning ta'limoti faqat tasavvufiy bilimlar foydasiga xizmat qilgan degan qarashlar keng yoyildi. Bundan tashqari, bu ta'limot, ya'ni G'azzoliyning g'oyasi XIV asrlardan boshlanib, uzoq davom etgan, musulmon dunyosini qamrab olgan intellektual va ma'naviy inqiroz sabablarini tushuntirishda ishlatilib kelindi. Masalan, G'azzoliy – "Ibn Sinoning ilohiyotdagi birinchi raqibi" (A.B. Carađeev), "falsafiy-reksion obskurantizm tarafdori" (G. Ley), "harakatsizlikka tortuvchi mavzu, Sharqda falsafaning tanazzuliga sabab" (Z. Muborak) va boshqalar [2, 26].

Keyingi davr ilmiy dunyoqarashida Imom al-G'azzoliyning falsafaga, umuman aqliy bilishga munosabatini o'rganishda yangicha yondashuv shakllandi. Bugungi ilmiy doiralarda G'azzoliy ta'limotining musulmon olamida ratsionalizmning zaiflashishi hamda tanazzulga uchrashi bilan bog'liq ekanligi haqidagi da'volarni rad etuvchi dalillar keltiriladi. Bunday yondashuv vakillarining fikricha, Imom al-G'azzoliy aql hamda mantiqni tanqid qilmagan, balki aqlni mutlaqlashtirish haqidagi da'volarni tanqid ostiga olgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aksincha, G'azzoliy tasavvufning aqlga qarshi tomonlarini tanqid qilgan. Uning ta'kidlashicha, aqlni tasavvufiy bilimlar bilan boyitish kerak, lekin bu bilimlar bilan aqlni o'rnini almashtirmaslik kerak. "Ihyo al-ulum ad-din" ("diniy ilmlarning tirilishi") asarining aql bobida aqlning qadrini himoya qiladi. Faylasuflarni tanqid qilishda u aqlning afzalligidan va kerakligidan shubhalanmaydi, balki uning "Mutlaq"ni bilishda chegaralanganligini ko'rsatadi.

Imom al-G'azzoliyning inson bilimi to'g'risidagi fikrini hisobga olmay turib, uning ratsionalizmga yondoshuvini aniqlash qiyin. Uning fikricha insonning bilish jarayoni cheksizlik kasb etadi. G'azzoliy shunday yozadi: "Bilimlar dengizi cheksizdir" [3,67]. Uning tushunchasida bilish uzluksiz, doimiy jarayon bo'lib, ma'lum bir mutlaq natijaga, chegaraga etish imkonini yo'qqa chiqaradi. G'azzoliy yozadi: "Ilmdagi oliy daraja nabiylar darajasidir". Faylasuy (hakim) haqiqat borasida nabiylardan quyi darajada bo'lsada, u ham haqiqatni izlaydi.

Sharqshunos olim A. Treyger G'azzoliy tushunchasidagi intuitiv bilim ko'p jihatlari bilan Ibn Sinoning qarashlariga to'g'ri keladi, degan fikrni beradi va bunga ko'plab dalillar keltiradi. A. Treyger Imom al-G'azzoliy faylasuflar bilan baxs-munozara qilgan asarlarining yozilgan va qabul qilingan vaqtini qayta ko'rib chiqishni taklif qiladi. A. Treyger fikricha, Imom al-G'azzoliy "Faylasuflarning ixtiloflari" asarini falsafa hamda faylasuflarga bo'lgan haqiqiy munosabatini berkitish uchun yozgan [4, 9-10]. "Faylasuflarning maqsadlari" risolasini esa Imom al-G'azzoliy o'zi yozganidek, – "Sharq perepatetiklari asarlarini faqat mustaqil ravishda o'rganib, ikki-uch yil ichida yozdim". G'azzoliy islom ilohiyotshunosligining ratsionalistik yo'nalishini ash'arizm hamda Ibn Sino ta'limotlarida o'zining to'liq ifodasini topgan arab-musulmon falsafasi bilan birga rivojlantirdi [3,70].

Ibn al-Arabiy falsafiy tizimining gumanistik tezisi o'ziga xos bo'lib, bugungi kunda o'ta ahamiyatlidir. U o'zining vahdat ul-vujud ta'limoti doirasida diniy plyuralizm va ilohiy marhamatning barcha narsa va xodisalarga nisbatan bir xilligini, universalligini asoslab berdi. Uning ta'limotiga ko'ra, har bir narsa o'z mavjudligining abadiyligi jihatidan Haqdan (Xudo)dan tashqarida emas, ya'ni

ajralmagandir. Shu nuqtai nazarga ko'ra, ibodatlarining barchasi aslida Yagonaga sig'inishdir. Ibn al-Arabi har bir din boshqa dinlarning mavjudligidan mavjuddir, deb ta'kidaydi. An'anaviy islom tarafdorlari tomonidan bunday fikrni rad etilishiga qaramay, uning plyuralizmi XX asr islom reformatorlari hamda zamonaviy G'arb madaniy doiralarida ijobiy qabul qilindi.

G'arb dunyosida Ibn al-Arabi o'zining tasavvufiy-falsafiy ta'limotidan ko'ra, ko'p xollarda diniy befarqlikni bildiradigan – diniy bag'rikenglik (tolerantlik) da'vati bilan shuxrat qozondi [5,105]. Ta'kidash kerakki, Ibn al-Arabiyaning tavhid borasidagi – “Hamma narsa Xudodadir va U hech bir narsada inkor etilmaydi” [6,124] degan g'oyasi uning diniy ixtilofi emas va shundan kelib chiqib, unga islom falsafasidagi marginal shaxs deb qarash noto'g'ri bo'ladi, albatta.

NATIJA VA MUHOKAMA

Har ikkala nazariy (akademik) tasavvuf (Mo'tadil va falsafiy) vakillari, ya'ni Imom al-G'azzoliy va Ibn al-Arabiyaning say-harakatlari bir-biriga nomuvofiq bo'lib chiqdi. Mo'tadil tasavvuf vakili Imom al-G'azzoliy ma'naviy amaliyotining maqsadi “ilohiy haqiqat”ga so'fiylikda belgilangan “yo'l” (tariq) asosida “fano” holati kabi tasavvufiy bilish usulida erishishdir. Ibn al-Arabi esa, o'z ta'limotida so'fiylarning ongli say-harakatlari orqali borliq yoki Xudoni bilishga shubha qilib, mutlaqo o'zgacha tushunchani olib kirdi. Uning ta'limotiga radikallik xos bo'lib, unda Xudoni bilish aslida Xudoning o'z o'zini bilishi deb qaraladi va bunda “Inson” Xudoning ko'plik dunyosidagi narsalari orqali doimiy ilohiy yangilanib turuvchi tajallining o'zini bilish joyidir.

Mo'tadil hamda falsafiy tasavvufning o'rtasidagi farqni tushunish uchun har birining asosiy qoidalarini ko'rib chiqish lozim.

Mo'tadil tasavvuf Imom al-G'azzoliyaning qarashlari asosida tahlil qilinadi. G'azzoliy o'z asarlarida ta'riflarga tayanadigan tafakkur barcha ta'rifdan ustun bo'lgan Xudoni bilishda kuchsizdir, deb ta'kidlaydi. G'azzoliy intuitsiya, ilohiy iqtidor orqali Xudoni bilishning muqobil yo'li mavjud deb bildi. Ilohiy mohiyatga kirishning ikki yo'li bor va ikkalasi ham aqlga muvofiq emas: Biri – “tanlanganlik”, “valiylik”, “vajd”, “fano” orqali. Ikkinchisi – nabiyalar so'zlariga qat'iy ishonch orqali bilinadi.

Imom al-G'azzoliy, shu tariqa, tasavvufiy ruhiy amaliyot yo'lining yakuniy maqsadini “Xudoga singib ketish” deb tushunadi. Xudoga singib ketish bu – ichki ruhiy holat, bilish va axloqning eng mukammal, yuqori cho'qqisidir. Shar'iy e'tiqoddan farqli o'laroq, singib ketish haqiqatning ajralmas qismi hisoblanadi. Uni mantiqiy nuqtayi nazardan echib bo'lmaydi va faqat so'fiylarning “xol”, “vajd” ilmiga mos keladi [7,100]. Mutlaq borliqni bilishda G'azzoliy uchun ikkinchi yo'l afzaldir, chunki birinchi yo'l payg'ambarlikning qirg'olchinchi qismi xolosdir deb bildi. Imom al-G'azzoliy payg'ambarlik ustuvor ekanligini tan oladi, chunki Muhammad a.s.dan olingan vahiy bilimlarga aoslangan musulmon jamoasiga sodiqlik ruhi tasavvufiy “singib ketish” tarafdorlarining individual tariqat yo'llariga rioya qilishidan yuqori bo'lishi kerak.

Ta'kidlash kerakki, tasavvuf amaliyotchilari pirovardida Imom al-G'azzoliy kabi mo'tadil so'fiylikning nazariy ta'limotlarini qo'llashni afzal bildilar. Mo'tadil so'fiylik nazariyotchilarining asarlari u yoki bu tasavvuf tariqatlariga mansub amaliy yoki “xalq” so'fiylik vakillari uchun o'ziga xos nazariy qo'llanmaga aylangan.

Ammo, asosli muammo vujudga keldi – Yaratganga yaqinlashish yo'lida yig'ilgan ulkan vajdiy tajriba hamda barcha so'fiylarning shaxsiy-ehtirosli yutuqlari yig'indisini ifodalovchi intuitiv tushunchalarni umume'tirof etilgan islomiy bilimlarning nazariy tizimiga, ya'ni musulmon shar'iy qoidalarini inkor etmasligi va ichki izchillik hamda tartibli talablariga javob berishiga moslashtirishning mutlaqo ilojisi yo'q edi. Chunki ilohiy voqelikni anglash tajribasi ruhiy tomondan mustahkam ishonch, haqiqiylik tuyg'usini bersa ham, lekin bu haqiqiylik induvidual, shaxsiy hisoblanardi [7,101]. Islom so'fiylari o'z vaqtida shuni angladilarki, tasavvufiy yo'l, ya'ni Xudoga yaqinlashish yo'li shaxsiy extirosli amallar – zikru-samo, jazaba (ekstaz) xolatida o'zini yo'qotish, o'zidan ketishni ham o'z ichiga olar ekan, bunday amaliyot ikkiyuzlamachilik va qalloblikka ham katta yo'l ochib berardi. Bundan keyin intuitsiya yordamida ilohiy haqiqatlarni induvidual anglash hamda o'z “men”ini ilohiy voqelikka qo'shib yuborish (ruhiy ma'noda) orqali keladigan haqiqiy vajdiy tajribani yolg'ondan ajratishning umumiy qoidalarini ishlab chiqdilar. Bu borada, Imom al-G'azzoliy avval shariatni keyin tariqatni qat'iy belgilab qo'ydi.

Tasavvufiy bilimning oxirgi maqsadini anglashda Muhyiddin Ibn al-Arabiyaning tasavvufiy ta'limoti Imom al-G'azzoliydan farq qiladi.

Birinchi navbatda bu ularning borliq masalalariga yondashuvlaridagi farqdan kelib chiqadi, buning natijasi ularning tasavvufdagi bilim (ma'rifat) mohiyatini turlicha tushunishlarini ko'rsatdi.

FALSAFA

Imom al-G'azzoliy hamda boshqa mo'tadil tasavvuf tarafdorlari Allohning ko'plik dunyosiga munosabati masalasini hal qilishda, O'rta asr arab-musulmon tafakkurining diniy-falsafiy qarashlarini yoqladilar. Ushbu qarashga ko'ra, Alloh o'zi yaratgan ko'plik olamiga qat'iy tashqi sifatdir. Shu ma'noda tushunilganda, birinchidan, Yaratganning tashqiligi va bosh yo'naltiruvchiligi kelib chiqadi, Xudo har narsaning shartidir, lekin aksincha emas, ikkinchidan, Xudo narsalarning tabaqaviy tabiatini ularning O'ziga nisbatan joylashuviga qarab belgilaydi.

Xudoning birinchi asos ekanligi haqidagi va Uning ko'plik olamidan tashqi ekanligi Ibn Arabiy tomonidan ikki tomonlama birlik sifatida qayta ko'rib chiqilib, unga "Uchinchi narsa"ni ham qo'shdi va ularni bir-biridan ajratmagan holda vahdat ul-vujud g'oyasini yaratdi.

Gap shundaki, Ibn al-Arabiy ta'kidlagan diniy bag'rikenglik g'oyalari an'anaviy islomda ham o'zining asoslariga ega:

Birinchidan, islomda tavhid tamoili birlamchidir. Vahdoniyat haqidaga ta'limot odamlarning ilohiy birligi va tengligini hamda barcha odamlarning etnik bir ekanligi (barcha insonlarning umumiy ajdodlari Odam Ato va Momo Havo ekanligi)ni asoslaydi [8,8]. Islomning milliy qobiqdan xoli ekanligi va umumbashariyligi Qur'oni karimning insonlarning birligi va tengligi to'g'risidagi g'oyasidan olinadi, odamlar barcha narsalarni o'ziga ko'ra adolatli mukofotlaydigan yagona Vohidning mavjudodlaridir.

Ikkinchidan, Qur'onga ko'ra, islomning aqoidlari (tavhid, payg'ambarlik ta'limotlari, Qiyomat va b.) undan ancha ilgariyoq yahudiy va nasroniy dinlari orqali bildirilgan. Yahudiylik, nasroniylik va islom vahiy dinlar hisoblanadi. Barcha narsalar haqida Allohning abadiy bilimini tashkil etgan "Lavhul mahfuz"dan insonlarga lavhalar, masalan, Tavrot (Tora) – yahudiylarga, Injil (Yangi ahd) – nasroniylarga tushirilgan deyiladi.

Ulug' Shayx olamda barcha narsa va xodisalar o'zaro sabab va natijaga ega emasligi haqidagi ash'arizm ta'limotini qabul qilib, olam har lahzada yo'q hamda bor qilinib, yangilanib turadi, deb ta'lim bergan. Olamning doimiy, uzluksiz yangilanish jarayonida Xudo ko'plik shakllarida olamda namoyon bo'ladi [5,109]. Bundan kelib chiqadiki, dinlarning turlicha haqiqatlari aslida bir, yahlit haqiqat ifodasidir.

XULOSA

Xulosa qilib, aytishimiz mumkinki, Abu Homid al-G'azzoliy ham Ibn al-Arabiy ham o'z tasavvufiy falsafiy nazariyasini yaratgan holda, falsafadagi eng muhim masala – bilish nazariyasini rivojlantirdilar. Musulmon dunyosining G'arbdan ancha orqada qolishi, shu jumladan, ratsionalizm an'analarning zaiflashishi sabablarini Imom al-G'azzoliyning ta'limoti bilan bog'lash noto'g'ri, albatta. Buni o'sha davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sabablardan qidirish lozim.

Ibn al-Arabiy o'zini chin musulmon deb bilgan va o'z asarlarida ahli sunna bo'lib gavdalansada, hamma dinlarning tengligini tasdiqlashi uning diniy bag'rikengligi va turli diniy konfessiyalar vakillari orasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish xohishini anglatadi. Har bir yaratilgan narsa yaxshidir, chunki unda Yagonaning abadiy tomoni bor. So'fiy olim, "Allohn bilish"da barcha dinlarni rad etmaydi va Xudoni har bir dinda, hatto butparastning butida ham ko'radi, ulardagi farqlarni Xudoning olamda namoyon bo'lishining xilma xilligida ko'radi. [8,113].

Abu Homid al-G'azzoliy ta'limotida tasavvuf – shariatga sodiq qolgan holda ruhiy poklanish, ahloqiy mukammallashish, nafsni zabt etish va Allohga qalban yaqinlashish vositasi sifatida talqin etiladi. Ibn al-Arabiy esa tasavvufni mavjudotning ilohiy manbaga oidligi, ya'ni vahdat ul-vujud tamoyili orqali tushuntiradi. Unga ko'ra, har bir mavjudot Allohning zohiriy tajallisi bo'lib, inson o'z botiniy kamoloti orqali ilohiy haqiqatga etadi.

Imom al-G'azzoliy hamda Ibn al-Arabiy yomonlik, zulm, qabohat, zo'rlik, mutaassiblik, xudbinlik, bag'ritoshlik, riyokorlik, urushlar kabi qabih illatlarga qarshi bo'lib, ijtimoiy adolat, insonsevarlik, insonlar, xalqlar o'rtasida o'zaro murosas, do'stlik munosabatlarini o'rnatishga da'vat etganlar. Bu ikki buyuk allomalarning insonparvarlik g'oyalarini o'rganish nafaqat ilmiy, balki juda katta axloqiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ikki buyuk alloma tomonidan komil insonni shakllantirishning so'fiyona tamoillari ishlab chiqildi. Ular negizida barkamollik tamoillari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xozirgi zamon glaballashuv jarayonida yoshlarimizni to'g'ri yo'lga chorlash uchun ular qalbi va ongida ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishni targ'ib qilish zarur. Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash shartlaridan biri har tomonlama etuk komil inson shaxsini shakllantirishdan iboratdir. Shuning uchun, al-G'azzoliy va Ibn al-Arabiyning tasavvufiy ta'limotlari bugungi kunda diniy

ekstremizm va mutaassiblikka qarshi kurashda muhim ma'naviy vosita bo'la oladi. Ularning ta'limotlari nafrat, zo'ravonlik va tajovuzkorlikka qarshi turib, insonni muhabbat, sabr, tavoze va qalb pokligi asosida tarbiyalashni ko'zlaydi.

Demak, tasavvufning bu ikki buyuk namoyandasi tomonidan ilgari surilgan ilohiy-falsafiy qarashlar, diniy g'oyalarni chuqur tushunish, bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda kuchli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ularning merosi zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ayniqsa yoshlar ongida sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirishda keng qo'llanilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясидаги нутқи // "Халқ сўзи", 2017 йил 20 сентябрь.
2. Ал-Джанаби М.М. Теология и философия ал-Газали. – М., 2010.
3. Насыров И.Р. К вопросу о критике философии Абу Хамидом ал-Газали. Философский журнал. – М., 2015. Т. 8. № 3.
4. Treiger A. The Science of Divine Disclosure. Valt University ProQuest Dissertations & Theses, 2008. 3317233.
5. Насыров И.Р. Ибн Араби и веротерпимость. Философия религии: аналитические исследования. – М., 2020. Т. 4. № 1.
6. Смирнов А.В. Великий шейх суфизма (опыт парадигмального анализа философии Ибн Араби). – М.: Наука. Издательская фирма «Восточная литература», 1993.
7. Насыров И.Р. К вопросу о роли Ибн Араби в истории исламского мистицизма. // Философская антропология. 2016. Т. 2. № 2.
8. Ибрагим Т. На пути к коранической толерантности. – Нижний Новгород: «Медина», 2007.